Babajanova Dilfuza Abdurasulovna	
SANOAT KORXONALARIDA QAROR QABUL QILISH JARAYONLARIGA SUN'IY INTELLEKT TEKNOLOGIYALARINI JORIY ETISH SAMARADORLIGI.....	836
Xusanova Malohat Mingnorovna	
АНАЛИЗ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ПРОЕКТАМИ И ПРОГРАММАМИ СТРАТЕГИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ООО «YANGI ZAMON TUHFASI»	842
Шавкатов Шохаббос Шухрат угли	
O'ZBEKISTON MISOLIDA LOMBARD SEKTORI MOLIYAVIY KO'RSATKICHLARI VA HISOB AMALIYOTI.....	854
Maksud Zaxirov	
IQTISODIY O'SISH VA O'ZBEKISTONNING YAIM DARAJASI.....	859
Nurova Farog'at Salohiddin qizi	
MINTAQAVIY MEHNAT BOZORI - XALQARO MEHNAT BOZORINING BIR QISMI SIFATIDA	864
Ismatova Shoxsanam Abdulaziz qizi	
DIGITAL INTERNATIONAL MARKETING: PROMOTION WITHOUT BORDERS (Rapid entry into foreign markets on a minimal budget using social media, influencers, and marketplaces (Amazon, AliExpress))	869
Abdullaev Aziz Kurbanovich	
Azimov Khumoyun Khamid ugli	
Pardayev Khusniddin Jakhongir ugli	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA NOSTANDART BANDLIK SHAKLLARIDAN FOYDALANISHNING ILG'OR XORIJ TAJRIBALARI.....	878
Fayzullayev Nurulla Baxromovich	
TIBBIYOT TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHNING YANGI YECHIMLARI.....	885
Muhammadiev Ramz Zoirjon o'g'li	
BANKLAR INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISHDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINING O'RNI	888
Muxtorova Shaxlo Farxodovna	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH MANBALARI TAHLILI.....	893
Nazirova Sayyora Baxtiyorovna	
Ergasheva Komila To'ra qizi	
MAHALLALARDA TADBIRKORLIK EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHDA INSTITUTSIONAL ISLOHOTLARNING METODOLOGIK MODELI	897
Sharopova Nafosat Radjabovna	



MAHALLALARDA TADBIRKORLIK EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHDA INSTITUTSIONAL ISLOHOTLARNING METODOLOGIK MODEL

Sharopova Nafosat Radjabovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Marketing” kafedrası dotsenti, i.f.d. (DSc)
Email: nafosat.sharopova@mail.ru
ORCID: 0000-0001-9595-0655

Annotatsiya: Ushbu maqolada mahallalarda tadbirkorlik ekotizimini shakllantirish va rivojlantirish jarayonida institutsional islohotlarning metodologik modeli ishlab chiqildi. Tadqiqotda mahalla darajasida biznes-inkubatorlar, savdo-logistika markazlari, kooperatsiya shakllari, klaster yondashuvi va oilaviy biznes ekotizimining ilmiy modellari tahlil etiladi. Mahalla iqtisodiyotida tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, resurslarni samarali boshqarish va iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qiluvchi institutsional mexanizmlarning o'zaro uyg'unlashuvi o'rganiladi. Taklif etilgan metodologik model mahalla infratuzilmasida barqaror tadbirkorlik muhiti yaratish va hududiy rivojlanish ko'rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: mahalla iqtisodiyoti, tadbirkorlik ekotizimi, institutsional islohotlar, biznes-inkubator, savdo-logistika markazi, kooperatsiya, klasterlash, oilaviy biznes, metodologik model, hududiy rivojlanish.

Аннотация: В данной статье разрабатывается методологическая модель институциональных реформ, направленных на формирование и развитие предпринимательской экосистемы в махаллях. В исследовании анализируются научные модели бизнес-инкубаторов, торгово-логистических центров, кооперации, кластерного подхода и семейного бизнеса на уровне махалли. Изучается взаимосвязь институциональных механизмов, способствующих поддержке предпринимательства, эффективному использованию ресурсов и повышению экономической активности на местном уровне. Предложенная методологическая модель ориентирована на создание устойчивой предпринимательской среды и улучшение показателей территориального развития.

Ключевые слова: экономика махалли, предпринимательская экосистема, институциональные реформы, бизнес-инкубатор, торгово-логистический центр, кооперация, кластеризация, семейный бизнес, методологическая модель, территориальное развитие.

Abstract: This article develops a methodological model of institutional reforms aimed at shaping and enhancing the entrepreneurial ecosystem within local communities (mahallas). The study analyzes scientific models of business incubators, trade and logistics centers, cooperation mechanisms, cluster approaches, and family business systems at the mahalla level. It examines the interaction of institutional mechanisms that support entrepreneurship, ensure efficient resource management, and stimulate local economic activity. The proposed methodological model is designed to create a sustainable entrepreneurial environment and improve indicators of regional development.

Keywords: mahalla economy, entrepreneurial ecosystem, institutional reforms, business incubator, trade and logistics center, cooperation; clustering, family business, methodological model, regional development.

KIRISH

Mamlakatimizda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar iqtisodiyotni mahalla darajasigacha chuqurlashtirib borishni talab qilmoqda. Mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti faqat infratuzilma yoki maishiy masalalar bilan cheklanmay, balki kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik uchun tabiiy start maydoniga aylanmoqda. Shu bois mahalla hududida tadbirkorlik ekotizimini shakllantirish mexanizmlari, ularni qo'llab-quvvatlaydigan institutsional islohotlar va boshqaruv tizimi bo'yicha ilmiy yondashuvlar muhim ahamiyatga ega.



Ana shu jarayonni chuqurroq tushunish uchun mavjud holatni raqamlar orqali ko'zdan kechirish lozim. Milliy statistika qo'mitasining 2025-yil uchun ma'lumotlariga ko'ra [1], mamlakat bo'yicha 5 800 dan ortiq oilaviy tadbirkorlik subyektlari faoliyat yuritmoqda; kichik bizneslar soni esa yil boshidan buyon barqaror o'sish tendensiyasini saqlab kelmoqda. Bu ko'rsatkichlar mahalla darajasida iqtisodiy faollikning kuchayib borayotganini ko'rsatadi va mavjud infratuzilmani ilmiy asosda takomillashtirish zarurligini tasdiqlaydi.

Ushbu sharoitda mahalla kesimida biznes-inkubatorlar, savdo-logistika markazlari, kooperatsiya tizimlari, klaster modeli va oilaviy biznesning samarali integratsiyasi alohida dolzarblik kasb etadi. Bunday mexanizmlar nafaqat hududiy iqtisodiyotni faol holga keltiradi, balki bandlikni oshirish, mahalla aholisi daromadlarini barqarorlashtirish va ijtimoiy muvozanatni mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi — mahallalarda tadbirkorlik ekotizimini rivojlantirishga xizmat qiladigan institutsional islohotlarning metodologik modelini ishlab chiqish, shuningdek, mavjud infratuzilmalar (biznes-inkubatorlar, savdo-logistika markazlari, kooperatsiya va klasterlar)ning ilmiy asoslangan tahlilini berishdir. Tadqiqot natijalari mahalla iqtisodiyotining barqaror rivoji uchun zarur bo'lgan tashkiliy-huquqiy, iqtisodiy va boshqaruv mexanizmlarining takomillashtirilgan tizimini shakllantirishga qaratiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mahalla darajasida tadbirkorlik ekotizimini shakllantirish bo'yicha ilmiy izlanishlar so'nggi yillarda yanada faollashdi. Xalqaro adabiyotlarda mahalla, community (jamo'a) yoki local neighborhood (mahalla) iqtisodiyoti doirasida tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash ko'proq "grassroots entrepreneurship" yoki "community-based ecosystem" tushunchalari orqali izohlanadi. Daniel Isenberg tomonidan ishlab chiqilgan tadbirkorlik ekotizimi modeli mahalliy darajadagi iqtisodiy faollikni kuchaytirishda institutlar, bozor infratuzilmasi, bilim resurslari va hukumat qo'llovi o'zaro bog'liq holda ishlashini ta'kidlaydi [2]. Bunday yondashuv mahalla miqyosida qo'llanganda ham samarali bo'lishi mumkinligi ko'plab tadqiqotlarda qayd etilgan.

Mahalliy iqtisodiy taraqqiyot bo'yicha Maykl Porterning klaster nazariyasi esa hududiy raqobatbardoshlikni oshirishda kooperatsiya, yaqin joylashuv va infratuzilma uyg'unligi muhimligini ko'rsatadi [3]. Shu bois, mahalla doirasida kichik klasterlar yoki kooperatsion guruhlar shakllantirish mikroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashi mumkin. Yevropa Ittifoqi tajribasida kichik jamoalar darajasida oilaviy bizneslarni qo'llab-quvvatlash orqali aholi bandligini oshirish bo'yicha "Local Development Approach" samarali natijalar bergani qayd etilgan [4].

Markaziy Osiyo va O'zbekiston kontekstida ham mahalla iqtisodiyotini kuchaytirish bo'yicha bir qator ilmiy ishlarda institutsional islohotlar, kichik biznesni rag'batlantirish va oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari o'rganilgan. Jumladan, iqtisodchilarning tadqiqotlariga ko'ra, mahalla infratuzilmasiga biznes-inkubatorlar, kooperatsiya markazlari, kasb-hunar o'quv maydonchalari kabi elementlarni integratsiya qilish mahalliy tadbirkorlik ekotizimining shakllanishini tezlashtiradi [5].

Shuningdek, logistika tizimi va ta'minot zanjirlarining mahalla darajasida tashkil etilishi, xususan, kichik savdo-logistika nuqtalarining yaratilishi kichik tadbirkorlar xarajatlarini kamaytirishi hamda bozorlarga chiqish imkoniyatini kengaytirishi ko'plab amaliy izlanishlarda asoslab berilgan [6].

Mahallalarda oilaviy tadbirkorlikning o'sish sur'atlari bo'yicha Milliy statistika qo'mitasi tomonidan e'lon qilinadigan ma'lumotlar ham ilmiy izlanishlarda muhim o'rin tutadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, oilaviy biznes subyektlarining yillik o'sish ko'rsatkichlari hududlarda tadbirkorlikning jonlanayotganini ko'rsatadi [7]. Ushbu raqamlar mavjud infratuzilmaning yanada takomillashtirilishi va institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlariga ehtiyoj yuqoriligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, jamoa darajasida tadbirkorlikni kuchaytirish bo'yicha boshqa qator olimlar tadqiqotlari ham muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, Elinor Ostromning o'zini o'zi boshqaruvchi jamoalar haqidagi nazariyasi mahalla kabi kichik birliklarda resurslarni birgalikda boshqarish iqtisodiy faollikni barqarorlashtirishini ta'kidlaydi [8]. Ostromning "polycentric governance" g'oyasi mahalla boshqaruvining moslashuvchan va ko'p qatlamli bo'lishini qo'llab-quvvatlaydi.

Mark Granovetterning "ijtimoiy bog'liqliklar iqtisodiyoti" konsepsiyasi esa mahallalarda kichik biznesning rivojlanishi ko'p hollarda ijtimoiy tarmoq aloqalarining zichligiga, ishonch kapitaliga va norasmiy hamkorlik kanallariga tayanishini ilmiy asoslaydi [9]. Bu esa mahalla darajasida ijtimoiy kapitalni kuchaytirish tadbirkorlik ekotizimi uchun hal qiluvchi omil ekanini ko'rsatadi.

John K. Kretzmann va John L. McKnight tomonidan ishlab chiqilgan "Asset-Based Community Development (ABCD)" modelida mahalliy iqtisodiy yuksalish tashqi resurslarga emas, balki jamoaning ichki salohiyatiga — ko'nikmalar, kasbiy an'analar, mavjud tarmoqlar va ijtimoiy ustunliklarga tayangan holda rivojlanishi samaraliroq ekanini ta'kidlanadi [10]. Bu yondashuv mahalla tadbirkorligini "pastdan yuqoriga" yo'nalishda tiklash strategiyasini qo'llab-quvvatlaydi.



Shuningdek, Stuart Rosenfeldning kichik hududlarda “micro-clusters” shakllanishi bo'yicha izlanishlari mahalla miqyosida o'xshash iqtisodiy faoliyatlar jipslashuvi raqobatbardoshlikni va kooperatsiya darajasini kuchaytirishni ko'rsatadi [11]. Bu topilmalar mahalla darajasida kasb-hunar guruhlar yoki oilaviy biznes klasterlarini shakllantirishning ilmiy asosini kuchaytiradi.

Amartya Senning “imkoniyatlar yondashuvi” (capability approach) bo'yicha ishlari esa mahallada iqtisodiy faollikni kengaytirish faqat biznes infratuzilmasi bilan emas, balki inson kapitalining rivoji, ta'lim imkoniyatlari, ijtimoiy himoya va jamiyatga qo'shilish imkoniyatlari bilan chambarchas bog'liqligini asoslab beradi [12]. Mazkur yondashuv mahalla tadbirkorligini faqat iqtisodiy jarayon sifatida emas, balki ijtimoiy rivojlanishning ajralmas bo'lagi sifatida talqin qiladi.

Umuman olganda, xalqaro adabiyotlarda tadbirkorlik ekotizimining ko'p darajali modeli, hududiy rivojlanishning klaster yondashuvi, oilaviy biznesning jamoaviy iqtisoddagi roli, mahalliy infratuzilma ta'siri kabi ilmiy yo'nalishlar mahallalarda tadbirkorlik ekotizimini shakllantirish uchun metodologik asos yaratadi. Ushbu ilmiy qarashlar mahalla darajasida institutsional islohotlar va yangi boshqaruv mexanizmlarini joriy etish zarurligini asoslab beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Ushbu tadqiqot jarayonida foydalanilgan tadqiqot usullari quyidagi 1-jadvalda keltirilgan (1-jadval).
1-jadval. Foydalanilgan metodologiyalar tavsifi¹

Bosqich	Metod	Mazmuni	Natija / Maqsad
1. Nazariy bosqich	Konseptual tahlil	Tadbirkorlik ekotizimi va institutsional islohotlarning nazariy asoslarini aniqlash	Nazariy poydevor
2. Diagnostik tahlil	Institutsional muhit tahlili, stakeholder xaritasi	Mahalla institutlari, vakolatlar va bo'shliqlarni baholash	Institutsional holatni aniqlash
3. Empirik tadqiqot	So'rovnoma, intervyu, statistik tahlil	Mahalla tadbirkorlarining amaliy ehtiyojlari va islohotlarga ta'sir omillarini o'lchash	Samaradorlik indikatorlarini aniqlash
4. Taqqoslash	Institutsional benchmarking	Xalqaro ilg'or modellarni solishtirish	Moslashtiriladigan mexanizmlarni tanlash
5. Model yaratish	Sistemali-institutsional yondashuv	Ekotizimning institutsional tuzilmasini modellashtirish	Integratsiyalashgan model
6. Tavsiyalar	Ekspert baholash, analitik sintez	Islohotlar va boshqaruv bo'yicha takliflar ishlab chiqish	Amaliy yo'l xaritasi

TAHLIL VA NATIJALAR

Mahallalarda tadbirkorlik ekotizimini shakllantirish jarayoni bir vaqtning o'zida institutsional tuzilma, boshqaruv amaliyoti va mahalliy iqtisodiy faollikning o'zaro uyg'unlashuviga tayanadi. Diagnostik bosqichda o'tkazilgan institutsional muhit tahlili mahalla boshqaruv tizimida vakolatlarni yanada tizimlashtirish, tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini institutsional jihatdan mustahkamlash va manfaatdor tomonlar o'rtasidagi koordinatsiya imkoniyatlarini kengaytirish zarurligini ko'rsatdi. Stakeholder (manfaatdor tomonlar) xaritasi esa mahalla raisi, tadbirkorlar, yoshlar yetakchilari, bank bo'limlari, xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar va nodavlat subyektlar o'rtasida mavjud rollarni yanada aniqlashtirish va o'zaro hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirish zarurligini aniq ko'rsatib berdi. Bu holat ekotizimning barqaror ishlashi uchun institutsional uyg'unlikning naqadar muhimligini ta'kidladi (1-rasm).

¹ Manba: muallif ishlanmasi



1-rasm. Stakeholder (manfaatdor tomonlar) xarita diagrammasi tasnifi²

Stakeholder xaritasi mahallalarda tadbirkorlik ekotizimini rivojlantirishda ishtirok etuvchi institutlarning ta'sir darajasi va manfaatlarini aniq belgilab, institutsional islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini samarali shakllantirishga yordam beradi. Yuqori ta'sirga ega mahalla rahbariyati va tadbirkorlarning faolligi ekotizimning barqaror ishlashini ta'minlaydi, o'rta ta'sir guruhlar esa uni qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlar bilan boyitadi. Pastki darajadagi xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar va NNT (nodavlat notijorat tashkilotlar) esa ekotizimning metodologik asoslarini mustahkamlovchi hamkor subyektlar sifatida muhim o'rin tutadi (2-jadval).

2-jadval. Mahalla institutsional muhitini baholash tasnifi³

Mahalla instituti	Asosiy vakolat	Amaliy faoliyat	Asosiy kamchiliklar	Takliflar
Mahalla raisi	Faollar va tadbirkorlarni boshqarish, tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash	Loyihalarni ma'qullash, resurs taqsimoti	Koordinatsiya va monitoring zaif, institutsional qo'llab-quvvatlash yetarli emas	Qo'shimcha resurs va metodik yordam ta'minlash
Tadbirkorlar	Iqtisodiy faollikni oshirish, ish o'rinlari yaratish	Biznes loyihalarni amalga oshirish	Mahalla bilan hamkorlik kam, moliyaviy va huquqiy qo'llab-quvvatlash yetarli emas	Hamkorlik mexanizmlarini kuchaytirish, grant va kredit imkoniyatlari
Yoshlar yetakchilari	Yoshlarni tadbirkorlik va ijtimoiy loyihalarga jalb qilish	Loyihalar tashabbusi, treninglar	Resurs va malaka yetishmovchiligi, boshqaruv tizimi bilan bog'lanish zaif	Mahalliy trening va qo'llab-quvvatlash dasturlari bilan integratsiya
Bank bo'limlari	Moliyaviy xizmatlar, kreditlash	Kreditlar, mikroqarzlar taqdim etish	Mahalla tadbirkorlari bilan aloqa yetarli emas, mexanizmlar murakkab	Maxsus moliyaviy dasturlar ishlab chiqish
Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar	Konsalting, trening, maslahat	Tadbirlar o'tkazish, maslahat berish	Integratsiya past, kommunikatsiya cheklangan	Hamkorlik memorandum, tizimli yondashuv
Nodavlat tashkilotlar (NNT)	Ijtimoiy loyihalarni qo'llab-quvvatlash, grantlar	Loyihalarni amalga oshirish	Mahalla boshqaruvi bilan koordinatsiya yetarli emas	Loyiha monitoringi va qo'llab-quvvatlash

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, mahalladagi turli institutlar tadbirkorlik va ijtimoiy loyihalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi hamda ularning vakolat va resurs imkoniyatlarini yanada kengaytirish maqsadga muvofiq. Har bir institutning samaradorligini oshirish uchun koordinatsiya, malaka oshirish va qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada kuchaytirish zarur. Shu orqali mahallalarda tadbirkorlik ekotizimi barqaror rivojlanadi.

² Manba: muallif ishlanmasi

³ Manba: muallif ishlanmasi




Xorijiy mamlakatlarda mahalla yoki mahallaga yaqin darajadagi tadbirkorlik ekotizimini rivojlantirish tajribalari tahlil qilinganida, samarali institutsional mexanizmlarning bir nechta umumiy xususiyatlari aniqlanadi. Masalan, Germaniyada mahallalarda tashkil etilgan “Local Business Hubs” tadbirkorlar uchun inkubatorlar, grant va konsalting xizmatlarini taklif qiladi. Ushbu mexanizmning kuchli tomoni — resurslar va moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning yuqori darajasi hamda mentorlik tizimining samarali ishlashidir. Shu bilan birga, byurokratiya murakkabligi kichik mahallalarda uning samaradorligini biroz cheklaydi.

Finlyandiya tajribasida “Municipal Entrepreneurship Programs” doirasida mahalliy hokimiyat yosh tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlaydi, treninglar va mikroqarzlar taqdim etadi. Bu mexanizm mahalla yoshlarini tadbirkorlikka jalb qilish va ijtimoiy faollikni oshirishga imkon yaratadi, ammo resurs yetishmovchiligi ba’zi hududlarda muammo tug‘diradi.

Janubiy Koreyada mahalla darajasida amalga oshiriladigan “Village Enterprise Support” dasturi kreditlar, grantlar va texnologik qo‘llab-quvvatlashni o‘z ichiga oladi. Mexanizmning afzalligi — tezkor moliyaviy yordam va texnologik integratsiya, kamchiligi esa kichik mahallalarda yetarli infratuzilmaning mavjud emasligidir. Singapur tajribasida esa “Community Start-up Support” orqali mahallalarda startaplarni rag‘batlantirish, konsalting va networking imkoniyatlari taqdim etiladi. Bu yondashuv innovatsion va xalqaro investorlarni jalb qilish imkonini beradi, biroq katta xarajat talab qiladi.

Xorijiy tajribalarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, mahallada tadbirkorlik ekotizimini rivojlantirishning eng samarali mexanizmi — bu integratsiyalashgan qo‘llab-quvvatlash tizimi bo‘lib, u quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi: treninglar va mentorlik, grant va mikrokreditlar, konsalting va networking imkoniyatlari, shuningdek, mahalla ehtiyojlariga moslashtirilgan yondashuv.

O‘zbekiston sharoitida ham bu mexanizmni joriy qilish mumkin. Xususan, mahallalarda “Tadbirkorlik markazlari” tashkil etish orqali yuqorida qayd etilgan barcha elementlarni birlashtirish tavsiya etiladi. Bu markazlar mahalliy tadbirkorlar va yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, resurslarni jalb qilish va hamkorlikni kuchaytirish uchun asosiy institutsional platforma sifatida xizmat qilishi mumkin. Shu tarzda mahalla tadbirkorlik ekotizimi samarali rivojlantiriladi va institutsional islohotlarning amaliy ta’siri oshadi (2-rasm).



2-rasm. Mahalla tadbirkorlik ekotizimini rivojlantirishning metodologik modeli⁴

4 Manba: muallif ishlanmasi



Metodologik model diagnostik bosqichdan boshlanadi: mahalla institutsional muhitini tahlil qilish, vakolatlar va resurslarni aniqlash, stakeholder xaritasi tuziladi. Keyin empirik tadqiqot va xorijiy tajribalarni taqqoslash orqali mahallaga mos mexanizmlar tanlanadi. Ushbu mexanizmlar asosida integratsiyalashgan qo'llab-quvvatlash tizimi tashkil qilinadi: treninglar, grantlar, mikrokreditlar, konsalting va mentorlik imkoniyatlari birlashtiriladi. Oxirgi bosqichda monitoring va baholash amalga oshiriladi, natijalar asosida indikatorlar aniqlanadi va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Shu tarzda mahallada tadbirkorlik ekotizimi barqaror rivojlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot mahallalarda tadbirkorlik ekotizimini shakllantirish va rivojlantirish jarayonida institutsional islohotlarning metodologik modelini ishlab chiqishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki: mahalla institutlari, ularning vakolatlari va amaliy faoliyati tadbirkorlik ekotizimining barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Diagnostik tahlil va stakeholder xaritalari asosida mahallalarda mavjud bo'shliqlar aniqlanib, bir nechta xulosalarga kelindi.

Mahalla boshqaruvi va tadbirkorlik subyektlari o'rtasida resurslar va ma'lumot almashinuvini yanada muvofiqlashtirish imkoniyatlari mavjud. Bundan tashqari, institutsional vakolatlarni tizimlashtirish va amaliy choralarning izchil yo'lga qo'yilishi tadbirkorlikni rivojlantirish jarayonini jadallashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, metodologik model bosqichma-bosqich amalga oshirilganda mahalla tadbirkorligi uchun qulay institutsional muhit yaratish va innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari oshadi.

Shuningdek, modelning tadbirkorlar, mahalla faollari va mahalla boshqaruvi o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni mustahkamlash, institutsional imkoniyatlarni kengaytirish va mahalliy iqtisodiy faollikni rag'batlantirishga xizmat qilishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

Vakolatlarni tizimlashtirish. Mahalla boshqaruv organlarining tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashdagi vakolatlarini aniq belgilash va ularni yagona monitoring tizimi orqali nazorat qilish.

Ma'lumot va resurs almashinuvini. Mahalla va tadbirkorlar o'rtasida tezkor axborot kanallarini yaratish, innovatsion va moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash.

Tashabbuslarni rag'batlantirish. Mahallalarda kichik biznes va startup loyihalarini moliyaviy va konsultativ qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish.

Institutsional bo'shliqlarni kamaytirish. Mahalla institutlari faoliyatida aniqlangan bo'shliqlarni bartaraf etish, jumladan, o'quv va trening dasturlarini joriy etish orqali tadbirkorlik salohiyatini oshirish.

Hamkorlik platformalarini yaratish. Mahalla faollari, tadbirkorlar va mahalla boshqaruvi o'rtasida doimiy dialog va hamkorlikni rag'batlantiruvchi platformalarni tashkil etish.

Ushbu takliflar amalga oshirilganda mahallalarda tadbirkorlik ekotizimi barqaror rivojlanadi, mahalliy iqtisodiy faollik oshadi va institutsional islohotlar samaradorligi sezilarli darajada kuchayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekistonda kichik biznes subyektlari faoliyati: 2020-2024 yillar statistikasi. <https://stat.uz>
2. Isenberg D. (2011). The entrepreneurship ecosystem strategy as a new paradigm for economic policy: Principles for cultivating entrepreneurship. Harvard Business Review, 1-13.
3. Murotov N. (2024). Improving models of cooperation between small businesses and mahallas to achieve socio-economic sustainability. Green Economy and Development. <https://doi.org/10.5281/zenodo.16902014>
4. European Union. (2022). Local development and community-based entrepreneurship: Policy report. European Commission. <https://ec.europa.eu/>
5. World Bank. (2021). Supply chain development and local logistics: Strengthening small business ecosystems. World Bank Publications. <https://worldbank.org/>
6. O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi. (2025). Oilaviy tadbirkorlik subyektlari bo'yicha statistik ma'lumotlar. <https://stat.uz/>
7. Ubaydullayev X., Karimov B. (2023). Mahalla iqtisodiyotida tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari. Iqtisodiyot va innovatsiya jurnali, 5(2), 45-57.
8. Harinurdin E., Laksmono B.S., Kusumastuti R., Safitri K.A. (2025). Community Empowerment Utilizing Open Innovation as a Sustainable Village-Owned Enterprise Strategy in Indonesia: A Systematic Literature Review. Sustainability, 17(8), 3394. <https://doi.org/10.3390/su17083394>
9. Putra I.R., Wibowo R.A., Purwadi A.T., Asrori Ch.N., Santoso W.B., Harefa H.Y., Suryawardana E. (2025). Village-Owned Enterprises Perspectives Towards Challenges and Opportunities in Rural



Entrepreneurship: A Qualitative Study with Maxqda Tools. Administrative Sciences, 15(3), 74. <https://doi.org/10.3390/admsci15030074>

10. Sustainability 2023. (2023). Building Partnership or Competition: Village Business Sustainability in Indonesia. Sustainability, 15(18), 13703. <https://doi.org/10.3390/su151813703>

11. Selvi E., Handoko Z.R., Ekawaty N., Maria R., Nurhasanah N. (2024). Innovative Strategies for Institutional Growth of Village-Owned Enterprises (BumDes) in Karawang City. Dinasti International Journal of Management Science, 5(6), 1385–1398. <https://doi.org/10.38035/dijms.v5i6.3091>

12. Harinurdin E., Laksmono B.S., Kusumastuti R., Safitri K.A. (2025). Community empowerment utilizing open innovation as a sustainable village-owned enterprise strategy in Indonesia: A systematic literature review. Sustainability, 17(8), 3394. <https://doi.org/10.3390/su17083394>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4 (2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>